



MUSTAQILLIK YILLARIDA XO'JAYLIDA SAVDO VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI

Seytmuratov Rashid Joldasbaevich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligining Qoraqalpoq
akademik litseyi o'qituvchisi.

Joldasbaeva Gulnara Rashidovna

Nukus davlat texnika universiteti assistent-o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15244522>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 15-Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 19-Aprel 2025 yil

KEYWORDS

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan "Mulknii davlat tasarrufidan chiqarishni tashkil etish va mahalliy sanoatni tashkil etish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni

ABSTRACT

O'zbekistonda bozor munosabatlarining vujudga kelishi va shakllanishi, mamlakatimizda mustaqillikning ilk davridagi iqtisodiy qiyinchiliklar jamiyatimizning turli sohalarida o'zgarishlar, yangilanishlarga olib keladi. Bozor iqtisodiyotining ta'siri va bozor qonunlari har bir inson hayotida dunyoqarashning o'zgarishiga, halol mehnat qilishga intilishga, davr talabiga mos yangilanishiga olib keladi. Iqtisodiy islohotlardagi natija va saboqlardan biri respublikamizda davlat mulkini xususiyashtirish keng ukkladli iqtisodiy asoslarni barpo etish bo'ldi. Qishloq xo'jaligida islohotlar amalga oshirildi, narxlar erkinlashtirildi va bozor infratuzilmasi

O'zbekistonda bozor munosabatlarining vujudga kelishi va shakllanishi, mamlakatimizda mustaqillikning ilk davridagi iqtisodiy qiyinchiliklar jamiyatimizning turli sohalarida o'zgarishlar, yangilanishlarga olib keladi. Bozor iqtisodiyotining ta'siri va bozor qonunlari har bir inson hayotida dunyoqarashning o'zgarishiga, halol mehnat qilishga intilishga, davr talabiga mos yangilanishiga olib keladi. Iqtisodiy islohotlardagi natija va saboqlardan biri respublikamizda davlat mulkini xususiyashtirish keng ukkladli iqtisodiy asoslarni barpo etish bo'ldi. Qishloq xo'jaligida islohotlar amalga oshirildi, narxlar erkinlashtirildi va bozor infratuzilmasi

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan "Mulknii davlat tasarrufidan chiqarishni tashkil etish va mahalliy sanoatni tashkil etish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni, davlat savdosi va umumiy ovqatlanish sohalarini xususiyashtirish to'g'risida"gi qarorini qabul qildi. O'sha qarorlar asosida chora-tadbirlar ishlab chiqilib, 1993-yilga 1198 savdo va umumiy ovqatlanish obyektlari sotish uchun belgilandi. Yil davomida jami 1173 ta savdo va umumiy ovqatlanish obyektlari xususiyashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 19-apreldagi "Supermarketlar tarmoqlarini tashkil etish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida Xo'jaylida ham "Supermarket" do'konlari tantanali tarzda ochildi. Xo'jayli savdo bazasidagi Yaponiyaning "Toyota" to'qimachilik mashinalari ishga tushirildi. 1999-yilda Xo'jayli Respublika ulgurji savdo bazasi aksiyadorlik jamiyati tomonidan umumiy tovar aylanmasi 211.255.1 ming so'm savdo amalga oshirildi. Ushbu aksiyadorlik jamiyatiga qarashli gilam to'qish sexlari, tayyor mahsulotlar tikish sexlari, qandolat oziq-ovqat

mahsulotlari tayyorlash sexlari har yili aholiga xizmat ko'rsatishda 146,0 foizga bajarmoqda. Savdo bazasi jamoasi tomonidan Angliyaning E.D "Man SUGAR Limited" firmasi bilan tuzilgan shartnoma asosida 600 tonna qand-shakar olib kelib aholiga sotdi[1].

Mustaqillik yillarida sanoat tarkibida ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Shisha idish, yoqilg'i sanoati kabi yangi tarmoqlar tashkil etildi.

1995-yili Xo'jayli shahrida yiliga 20 million dona banka chiqaradigan shisha idish zavodi foydalanishga topshirildi. Ushbu sanoat korxonasi ishga tushirilishi respublikadan tashqari mamlakatlardan shisha idish importini qisqartirishga imkon berdi. Shuningdek, ko'plab savdo, umumiy ovqatlanish va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari barpo etildi. Ular o'sha korxonalarining o'z mablag'i, shuningdek, xususiy mablag'lari hisobidan barpo etildi. Shuningdek, Xo'jayli shahrida yiliga 12 million hajmli 0,5 litr shisha idish ishlab chiqaradigan uskuna o'rnatildi [2].

Ushbu korxonaga haqida xo'jalikchi D.Belasarov batafsil ma'lumot berib, unda "Xo'jayli shisha ishlab chiqarish zavodi" ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati bo'lib, u 1995 yilda ishga tushdi. Bu jamiyat qisqa vaqt ichida respublikamizning sanoat sohasi rivojiga o'z hissasini qo'shmoqda. Zavodda shisha ishlab chiqarish uchun kuniga 20-22 tonna xomashyo sarflanib, 30-35 ming dona 12 turdagi shisha idishlar ishlab chiqarilmoqda. Har bir shisha idishning og'irligi 380 grammga to'g'ri keladi.

Shisha idishlarning sifati va ko'rinishi yaxshi bo'lganligi sababli ushbu aksiyadorlik jamiyatining mahsulotlarini Toshkent, Nukus vino zavodi, Rossiya, Tojikiston, Qirg'iziston shaharlaridan kelib sotib olmoqda. Zavodga shisha idishlar ishlab chiqarish uchun xomashyolar Qirg'iziston, Qashqadaryo, Boshqirdistondan keltiriladi [3].

Xo'jaylidagi paxta tozalash zavodi ham mustaqillik yillarida katta natijalarga erishdi. Bu, birinchidan, paxta zavodining hozirgi davr talabiga mos yangi asbob-uskuna va texnikalar bilan ta'minlanishi bo'lsa, ikkinchidan, zavodning ishlab chiqargan mahsulotlari sifati jihatidan xalqaro miqyosda e'tirof etila boshlandi.

"Xo'jayli tolasi" aksiyadorlik jamiyati tumandagi eng yirik sanoat korxonalaridan biri hisoblanadi. Uning tumanning iqtisodiy sohasidagi tutgan o'rni muhim. Shuningdek, uning "Xo'jayli yog'" zavodi aksiyadorlik jamiyati uchun ishlab chiqarish va iqtisodiy ahamiyati katta. Undan keyin to'qimachilik kombinatlari, maishiy xizmat, savdo korxonalari uchun xomashyo va tayyor mahsulotlar tayyorlab beradi. Shuning uchun tuman hokimligi yildan-yilga paxta ekishga va undan olinadigan mahsulotga alohida e'tibor berib kelmoqda. Korxonalarining aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilishi mulkka bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirdi. Ishlab chiqarish texnologiyalari zamonaviylashdi. Mahsulot turlari ko'payib, sifati oshdi. Hajmi ko'payib, eksport miqdori oshdi. 1993-yili 14 ming 664 tonna paxta qabul qilib oldi. Shundan 5 ming 750 tonnasi qayta ishlanib, 1 ming 818 tonna paxta tolasi, 3 ming 83 tonna chigit, 129 tonna lint, 25 tonna ulyuk va 222 tonna momiq ishlab chiqarildi. Sotilgan mahsulot hajmi 2 milliard 275 million 945 ming so'mni tashkil etdi. Zarur qismlar, elektr energiyasi va yoqilg'i-moylash materiallaridan tejab foydalanish hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirish hisobiga 226 million 479 ming so'm foyda olindi. Umumiy daromad 2 milliard 275 million 945 ming so'm bo'ldi. Agar bundan to'langan barcha soliq va boshqa xarajatlarni chiqarib tashlasak, sof foydaning o'zi 54 million 364 ming so'mga to'g'ri keladi. Bolalar oromgohlarida tarbiyalanayotgan kichkintoylar uchun hamda ko'p bolali

oilalar, nogironlar, boquvchisini yo'qotgan shaxslarga 850 ming so'm, bolalar sportini rivojlantirishga 300 ming so'm moddiy yordam berilgan [4].

Shu bilan birga zavod mustaqillikning dastlabki kunlarida bir qancha yutuqlarga erishganini ta'kidlash lozim. 600 dan ziyod ishchi zavodning har bir sohasi bo'yicha unumli mehnat qilgan. Ular tumanning paxtachilik xo'jaliklari yetkazib bergan paxtalarni qayta ishlab, tozalab undan sifatli tola, momiq va chigit yetishtirib bergan. Zavod jamoasi 1993 yilda 10369 tonna paxta tolasi ishlab chiqarib, shundan 6 ming tonnasini xorijga sotgan. 1991-1992-yillarda Xo'jayli paxta tozalash zavodi O'zbekistondagi paxta tozalash zavodlari o'rtasidagi musobaqalarda qatnashib, bir necha bor g'olib chiqqan. Zavod jamoasi bir necha bor pul mukofoti bilan taqdirlangan [5].

Qoraqalpog'iston paxtasining, shu jumladan "Xo'jayli tolasi" jamoasining mustaqillik yillaridagi katta yutuqlaridan biri, ishlab chiqargan mahsulotlarining sifati bo'yicha jahon miqyosida e'tirof etilayotganligini alohida ta'kidlashimiz kerak. Chunki dunyodagi barcha mamlakatlarda, ulardagi zavod va fabrikalarda, firma va kompaniyalar korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga turli nominatsiyalarda baho berib, dunyo mamlakatlariga tarqatuvchi bir necha xalqaro jamg'armalar, tashkilotlar, uyushmalar faoliyat ko'rsatib turibdi. Ushbu xalqaro jamg'arma va tashkilotlar tarkibiga dunyodagi rivojlangan davlatlarning turli sohalar bo'yicha o'qimishli mutaxassisleri, taniqli olimlari va kompaniyalar rahbarlari, ekspertlar kirib faoliyat yuritadi. Ular o'z bozorlari bo'yicha eksportga chiqarilayotgan mahsulot va buyumlarni har tomonlama sinab ko'rib, ekspert xulosalar beradi va shu o'zlarining bergan xulosalarini reklamalar, ommaviy axborot vositalari orqali dunyoning ko'plab joylariga e'lon qilib tarqatadi. Ularning bunday ishlari mahsulotni sotuvchilarga va xaridorlarga ko'p jihatdan manfaat keltiradi.

1993-yildan boshlab paxta qabul qilish, saqlash va uni qayta ishlash O'zbekiston Respublikasida davlat standarti bo'yicha qabul qilina boshlandi. Respublikada 1993-yili yetishtirilgan 342493 tonnadan ziyod paxtadan 93185 tonnadan ortiq sifatli tola olindi, buning 55% i chet ellarga sotishga chiqarildi. Jumladan Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya, Indoneziya, Polsha, Rossiya, Ukraina, Turkiya va yana boshqa davlatlar respublikamizdagi barcha paxta tozalash zavodlarining mahsulotlarini olish bilan birga, Xo'jayli paxta tozalash zavodi tayyorlagan sifatli paxta tolalarini ham sotib oldi.

Bu haqda O'zbekiston miqyosida chiqadigan gazetalarda "Xo'jayli talasi" aksiyadorlik jamiyatining yutuqlari yoritib borilmoqda. Ularda yozilishicha korxonalarda tayyorlangan tolalar jahon bozorida o'z xaridorini topmoqda. Birjalarda Qoraqalpog'istonda ishlab chiqarilgan tolagu yuqori baho berilmoqda.

Buning yaqqol misoli sifatida "Xo'jayli tolasi" kabi korxonalarda tayyorlanayotgan tola Buyuk Britaniya, Shveysariya, AQSH, Shimoliy Koreya kabi xorijiy davlatlar iste'molchilariga manzur bo'lmoqda. Paxta tolasining 1 ming 756 tonnasi Xitoy davlatiga jo'natildi. Yil yakuni bo'yicha 210 million so'm sof foyda olindi. Daromadning asosiy qismi aksiyadorlarga dividend sifatida tarqatildi. Qolgani ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirishga sarflanmoqda [6].

Shuningdek 2004-yilning 19-iyul kuni Butunjahon marketing tashkiloti tomonidan Gollandiyaning Amsterdam shahrida o'tkazilgan kongressda "Qoraqalpoqpaxtasanoat" birlashmasiga paxta tolasining sifati uchun xalqaro "Oltin yulduz" mukofoti berildi. Xo'jalidagi ochiq aksiyadorlik jamiyatiga ham xalqaro mukofot berilgan [7].

Umuman, hozirgi vaqtda "Xo'jayli tolasi" aksiyadorlik jamiyati bozor munosabatlari tug'dirayotgan qiyinchiliklarni yengib o'tish va unga moslashib borish uchun hamjihatlikda mehnat qilmoqda.

Bozor munosabatlari talablari va Prezidentimizning mamlakatimizni rivojlantirishdagi ustuvor yo'nalishlari sifatida aytib o'tayotganidek, qo'shma korxonalar barpo etish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, eksportga mahsulot chiqarish o'ta dolzarb masalalardan biridir. Shu bois "Xo'jayli tolasi" aksiyadorlik jamiyati jamoasi ushbu yo'nalishda ish olib bormoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan yillarda Xo'jayli tumani aholisi hamjihatlik bilan mehnat qilib, Respublikamizning o'sib rivojlangan eng ilg'or tumanlaridan biri hisoblanadi. Ayni paytda tumanda 26 ta ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati, bundan tashqari 24 ta mas'uliyati cheklangan jamiyat korxonalari, 90 dan ortiq savdo va maishiy xizmat bo'linmalari, dorixonalar, xususiylashtirilgan kichik va xususiy korxonalar, firmalar soni ortib bormoqda. Tumanda paxtachilikda fermerlar harakati keng yoyilib, jami 167 fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda.

Ko'rib o'tganimizdek Xo'jayli tumani mustaqillik yillarida ham savdo va tadbirkorlikni rivojlantirishda ko'plab yutuqlarga erishgan. Bir qancha savdo tarmoqlari hozirgi davr talabiga mos yangidan tashkil etilib, aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida tadbirkorlar soni ko'payib, ular ham o'z faoliyatini takomillashtirib borib, xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini rivojlantirish yo'lida faol mehnat qilmoqda.

Shu bois kelgusida ushbu soha tarixini kundalik matbuot materiallari, arxiv ma'lumotlari va soha xodimlarining xotiralari asosida o'rganib borsak, ularning natijalarini matbuotda e'lon qilib borsak, tug'ilib o'sgan zaminimiz tarixini chuqur bilib borishga va shu orqali o'sib kelayotgan avlodni har tomonlama tarbiyalashga, tariximizni to'ldirib borishga hissa qo'shgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сахиев Д., Юсупов О. «Қарақалпақтутуныў» акционерлик компаниясының тарийхый жылнамасы. Н 1999, 72-бет
2. Қарақалпақстанның жаңа тарийхы. Н, 2003, 442-бет.
3. Беласаров Д. Хожели. Н, 2011, 142-бет.
4. Ешимбетов Е. «Хужайли толаси» Акциядорлик жамияти меҳнат аҳлининг кўкламолди юмушлари// Ўзбекистон овози 2004 йил 2 март
5. Рахимов К., Қурбонбоев И. Толалар тарихи. Н. 1998. 64-бет.
6. Қорақалпоқ толасининг шухрати// Ишонш 2004-йил 27-февраль
7. Мирҳабибов Ш., Мирфайзиев М. Оролбўйи хирмони// Ўзбекистон овози 23-ноябрь 2004-йил; Пахта-сифатли мақсулатга айланди// Аму тонги 23-октябрь 2004-йил.